

Alisher TOYIROV,
*Samarqand veterinariya meditsinasi
 instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

Shaxzod AXMEDOV,
o'qituvchi

QADIM BUXORO – ISLOM MA'NAVIYATI O'CHOQLARIDAN BIRI

Ma'lumki, qadim Turon zamini azaldan Minsoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan bo'lgan. Buni arxeologik va etnografik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Hududimizda islom dini keng tarqalgunga qadar ham o'ziga xos madaniyat shakllangan, xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilgan edi. Agar islom dini Arabiston yarim orolida vujudga kelib keyinchalik, dunyo dinlaridan biriga aylangan bo'lsa, islomshunoslik ilmi, shuningdek, dunyoviy ilm-fan takomilini har tomonloma yuksalishda aynan, Markaziy Osiyo hududi yetakchi mavqega ega bo'lganligi bugungi kunda keng jamoatchilikka ma'lum. Zero, IX – XII ya'ni arab istilosidan keyin, hamda XIV – XV asrlar mo'g'ul bosqinidan keyingi davrlarda yuz bergan o'ziga xos Sharq uyg'onish davrlarida aynan, bizning ona-vatanimiz farzandlari bo'lgan islomshunos va ensiklopedist (qomusiy) olimlar butun jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shganligini xususan, hozirgi zamonaviy texnologiyalarning ildizlari ularning ilmiy tafakkuri bilan bog'liq ekanligini butun dunyo jamoatchiligi e'tirof etmoqda. Jumladan, 2014-yilning 15-16 may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan buyuk alloma va mutaffakkirlarning ilmiy merosi va uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan

o'rni va roliga bag'ishlanib, o'tkazilgan konferensiyada Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: "Tadqiqotchi-olimlarning fikricha – Sharq xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX–XII va XIV–XV asrlarda bamisoli po'rtnadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbayi hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans (uyg'onish) jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Men, yoshlarimizga murojat qilar ekanman, ularga doimo: "Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz g'ururlanishimiz kerak" deb aytaman. Ayni vaqtda, "faqat g'ururlanishning o'zi yetarli emas, kelinglar, o'zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o'z hissamizni qo'shaylik" deb, takrorlayman". Shubhasiz ushbu diniy va dunyoviy ilmiy merosga IX asrdan boshlab, "Qubbat ul – islom" ya'ni islom dinining gumbazi, degan nomga ega bo'lgan qadim Buxoro farzandlari salmoqli hissa qo'shgan. Xususan, barcha sohalar bo'yicha, ayniqsa, tibbiyot ilmidagi, butun dunyo tibbiyoti bugungi kungacha foydalanib kelayotgan ulkan ilmiy yangiliklar yaratgan qomusiy alloma Abu Ali Ibn Sino, islom dinida

Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi mo'tabar manba hisoblangan hadishunoslik ilmini yuksak takomilga ko'targan Imom al-Buxoriy Markaziy Osiyodagi uchta tasavvuf yo'nalishlaridan biri bo'lgan XIV asrda asos solingan "Naqshbandiya" ta'limotini asoschisi Bahouddun Naqshbandiy va boshqa ko'plab buyuk zotlarning vatanidir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Prezidentlik saylovi davrida, Buxoro viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi "Ilmu ma'rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik bilan nom qozongan xalq", deb nomlangan nutqida, mustaqillik yillarida bu qadimiy diyor va uning mard, oliyjanob xalqi sharafiga "Ko'xna va boqiy Buxoro" yodgorlik majmuasi bunyod etilganligini, Toshkentda bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirligining yig'ilishida, O'zbekiston tomonidan buyuk muhaddis Imom Buxoriy bobomizning tabarruk merosini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida xalqaro ilmiy markaz tashkil etish haqidagi taklifi mamuriyati tomonidan hayrihohlik bilan kutib olinganligini ta'kidlashi¹, ushbu o'lkani bir tomondan qadimiy sivilizatsiya makoni ekanligiga, ikkinchi tomondan, islom olamiga zabardast islomshunos olimlar yetkazib bergan, "islom dinining quvvati", degan nomga munosib ekanligini asoslaydi. Bundan tashqari, mamlakatning Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Imom Buxoriyning "Al-jome as-sahih" asarida 7275 hadislar jamlangan bo'lib, ulardan 4000 tasi takrorlanmaydigan hadislar ekanligini, ushbu zotning ta'limotini keng yoyish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etishga qaror qilinganligini bildirganligi,² Imom Buxoriyni, islom ta'limotiga salmoqli hissa qo'shgan qadimiy Buxoroni, butun dunyoga yanada kengroq tanitdi. Shu o'rinda mamlakatimizga, xususan, Buxoroga islom dini qanday tarqalganligi va mustahkamlanganligiga manbaalar asosida izoh bersak. Ma'lumki, arablarni ko'hna Turon zaminiga

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 145-146 betlar

² Qarang// Xalq so'zi, 2017-yil, 20-sentyabr

bosqini shartli ravishda ikki davrni ya'ni, asosan mahalliy hukmdorlarni sinash va talonchilikni maqsad qilgan 651–704-yillarni o'z ichiga olgan birinchi, hamda Qutayba Ibn Muslim rahnamoligida ushbu hududni arab xalifaligi tarkibiga qo'shib olishni maqsad qilgan va buni uddalagan, 705–715 yillarni o'z ichiga oluvchi ikkinchi davr. Shuni ta'kidlash lozimki, birinchi davrda, aniqrog'i 672-yilda Ubaydullo Ibn Ziyod Buxoro o'lkasiga xususan, eng qadimgi savdo markazlaridan bo'lgan Baykand (Poykent) shahriga tajovuz qilib, uni uzoq qamal etganidan so'ng bosib oladi. Faqat yordamga kelgan turklar hujumidan keyin, mol-mulkni talab, Buxoro o'lkasidan Marvga qaytishga majbur bo'ladi. Bu xususida arab tarixchisi shunday yozadi: "Buxoro podshohi o'lkasini xarob bo'lishidan va xatardan qutqarish uchun Ubaydullo bilan sulh tuzib unga har yili 1 million dirhamdan to'lab turishga va'da bergan edi. Manbaalarda qayd etilishicha, Qutayba Ibn Muslimni 709-yildagi to'rtinchi tajovuzidan keyin Buxoro shahri to'liq zabt etiladi. Bu yurt avval g'ayri matlub ko'ringan dinni bosib olgan fotihlar bilan barobar qabul qilib, keyinchalik shu (Islom) dinining eng ashaddiy mujohidlarini yetishtiradi. Hozir (muallif yashagan davr nazarda tutilmoqda) Osiyoning har bir burchagida Islom, go'yoki tanazzulga ketayotgan bir holda, yolg'iz Buxorodagina xalifa Horun ar-Rashid davridagi Islom dini urf odatlarga amal qilish davom ettirilmoqda³. Ushbu ma'lumotlar Buxoro o'lkasi, xususan, Buxoro shahri xalqi Islom dini tarqalgan dastlabki davrlardan boshlab Islom dini g'oyalarini hatto, din shakllangan hudud aholisidan ham ko'proq o'z qalbiga chuqur singdirgan va unga doimo sadoqatli bo'lganligidan darak beradi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyodagi dastlabki masjid, madrasalarni aynan Buxoro shahrida barpo etilishi ham tasodifiy emas. Ammo Chingizxon istilosi davrida Markaziy Osiyoning boshqa shaharlariga nisbatan, Islomshunoslik ilmi, Islom ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan Buxoro shahri eng ko'p talon-taroj qilindi, tahqirlandi. Masalan, 1200-yilning fevral oyida mo'g'ullar tomonidan Buxoro zabt etilganidan keyin Chingizxon mo'g'ularga qarab "O'tloq

³ Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi.-T: G'afur G'ulom nashtiyoti, 1990 10-15 betlar.

o'rildi, otlaringizga yem beringiz" deb, talon tarojsa ruxsat beradi. Hamma narsa talon-taroj etiladi. Muqaddas kitoblari yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga somondek sochiladi. Ushbu kitoblari saqlangan sandiqlar otlarga oxir sifatida ishlatiladi. Islomshunoslik ilmi yulduzlari bo'lgan mullalar, shayxlar, qullar kabi e'tiborli jangchilarga xizmatkor qilib goho esa mo'g'ul baxshilarga masxara uchun beriladi. Ko'pgina mo'tabar qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilinadi. Musulmon tarixchisi quyidagicha hikoya qiladi: diniy hissiyotning tahqir qilinishi biroz mubolag'a bo'lsada, mo'g'ullarning ushbu hujumidan keyin shubhasiz, Buxoro ko'p ziyon ko'rdi va dahshatlarni boshidan kechirdi⁴. Xuddi shu kabi ma'lumotlarni ya'ni Islom dini gumbazi deb ulug'lanib, Islom ma'naviyatini yetakchi o'choqlaridan bo'lgan Buxoroyi sharifni ko'chmanchi mo'g'ullar tomonidan talon-taroj qilinib tahqirlanganligini boshqa ko'plab manbaalarda, jumladan, Chor Rossiyasi sarkardasi A.Ivanin asarida ham ta'kidlanganligini aytish joizdir⁵. Agar Chingizxon bosqini tufayli Buxoro o'lkasi vayron etilgan bo'lsa, mo'g'ullarni Movarounnahr sarhadidan qquvi, markazlashgan mustaqil davlat tuzgan sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida Buxoro o'lkasi xususan, Buxoro shahri yana Islom olamining muhim markazlaridan biriga aylandi. Jumladan, olim va adolatli hukmdor Mirzo Ulug'bek tomonidan 1417-yilda Buxoroda, 1433-yilda G'ijduvonda musulmon o'rta va oliy o'quv yurtlari hisoblangan (bu yerda madrasayi oliya ya'ni oily madrasa ta'limi nazarda tutilmoqda) madrasalari barpo etilishi tasodif emas. Buxoroning 1533-yilda ya'ni Shayboniy Ubaydullaxon davridan boshlab, Shayboniylar davlatning poytaxtiga aylanishi, davlatning Buxoro xonligi deb nomlanishi, Buxoroning 1920-yilga qadar ushbu xonlikning (1756-yildan amirlikning) poytaxtiga aylanishi, ushbu shaharni Markaziy Osiyodagi islom ma'naviyatining yetakchi markazi sifatidagi nufuzini yanada oshirdi. Ushbu davrlarda Buxoro shahrida va viloyatida Islom ma'naviyati

o'choqlari bo'lgan ko'plab, masjid va madrasalar barpo etildiki, ular hozir ham moddiy va ma'naviy madaniyatimiz sarchashmalari sifatida millionlab sayohatchilarni o'ziga jalb etmoqda. Ma'lumki, 1747-yildan, amalda 1756-yildan rasman Buxoroda o'zbek xalqining mang'it urug'g'i siyosiy hokimiyatni egalladi va davlat Buxoro amirligi degan rasmiy nomga ega bo'ldi. Ko'pgina adabiyotlarda davlatning bunday nomlanishiga mang'itlar chingiz urug'idan bo'lmaganligi uchun ham xonlik deb, atalmaganligiga asosiy urg'u beriladi. Bunday bo'lsa, qo'ng'iroq va ming urug'i ham chingiz urug'idan emas edi-ku, ular nega o'zlarini xon deb atashda davom etdi, degan savol tug'iladi. Aslida, Buxoro mang'itlarining amir sifatida hukmdorlik qilishlarining asosiy sababi, Buxoro hukmdorlari qolgan ikki xonliklardan farqli o'laroq (to'g'ri Qo'qonda Umarxon ham ma'lum muddat diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z qo'lida to'plab o'zini "amir" deb atagan) doimiy ravishda diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z qo'lida birlashtirib kelganligi bilan izohlanadi. Ushbu holat ham Buxoroda islom ma'naviyati, islom ta'lumotini boshqa o'zbek davlatlariga nisbatan davlat miqyosida yanada kengroq targ'ib qilinishi va e'tiborda bo'lishligini ta'minladi. Zero, so'nggi Buxoro amiri Sayid Olimxon Buxoro shahrini bolsheviklar zabt etgandan keyin, dastlab, ularga qarshi kurashga yetakchilik qilgan, keyinchalik Afg'onistonda muxojirlikda yashab, 1944-yilning 28-aprelida bu foniy dunyodan ko'z yumgan. Ushbu Buxoro farzandi umr bo'yi islom ma'naviyati ruhida tarbiyalanib, unga amal qilganligi, islom dushmanlariga qarshi kurash olib borganligi uchun ham Qobul atrofida joylashgan. "Shohidoni islom" ya'ni "Islom shahidlari" qabristoniga dafn etilgan.⁶ Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Buxoro amirligini yarim mustamlakaga (Tashqi siyosat mustamlakachi davlat nazoratidarida, ichki siyosatda ma'lum darajada mustaqillikka ega) aylantirilishi hududda milliy va diniy qadriyatlarni bardavom saqlanishini ta'minladi. 1920–1924-yillarda "Yosh Buxoroliklar" tashkiloti yetakchisi Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro Xalq Respublikasi davrida ham ushbu obro'li milliy

⁴ Herman Vamberi . Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.-T; G'afur G'ulom nashtiyoti,1990 22-23 betlar.

⁵ Qarang// A.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur.-T;Fan,1994

⁶ F.Haydarov. So'nggi Amir – Samarqand: Zarafshon nashriyoti,2017. 23-bet

yetakchimizning sa'yi-harakati bilan milliy va diniy qadriyatimizga keskin ziyon yetkazilmadi. Zero, "Yosh Buxoroliklar" tashkiloti bolsheviklardan farqli o'laroq, diniy va milliy qadriyatlarni qadrllovchi demokratik g'oyalarga sodiq maslakdoshlarni o'zida birlashtirgan edi. Nihoyat sovet mustamlakachiligi davrida din xalq uchun afyundir shiori ostida diniy qadriyatlarga qarshi hujum boshlanib, qadim Buxoroning islom qadriyatlariga ham katta ziyon yetkazildi. Nihoyat, milliy mustaqillik, milliy va diniy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov farmoni bilan mamlakatimizda islomshunoslik ilmiga ulkan hissa qo'shgan olimlarimiz, xususan, Buxoro o'lkasi farzandlari bo'lgan Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoniylarning yubileyleri o'tkazildi. Ulkan va boy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lmish islom nazariyasi tarixi, falsafasi, huquqshunosligi, madaniyati va axloqi masalalarini chuqur o'rganish, ilmiy tadqiqotlarda markaziy o'rin egallay boshladi.⁷ Bugungi kunda mamlakatimizda diniy qadriyatlarimizga dinlararo bag'rikenglik g'oyasgai davlat miqyosida yanada kengroq e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentbrdagi yig'ilishida 2020-yilda Buxoro shahrining islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi buning yorqin dalilidir. Diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm kabi illatlar kuchayib borayotgan bugungi ziddiyatli dunyoda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" g'oyasini butun dunyo bo'ylab qonuniy asosida keng targ'ib etish o'ta zarur ekanligini chuqur anglagan muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi 72-sessiyasida qatnashib, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasi qabul qilish taklifini berganligi va uni qabul qilinganligi o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i hisoblanadi.⁸ Mamlakatimiz

⁷ Z.Husniddinov. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.- Toshkent,2005 14-15 betlar.

⁸ Sh.M.Mirziyoyev.. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi."Xalq so'zi" gazetasi.2017 yil, 20 sentyabr

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan navbatdagi Murojaatnomasida mamlakatimizda jaholatga qarshi-ma'rifat, degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini,tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishni targ'ib etish bundan keyin ham kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qolishligini ta'kidlaganligi, mamlakatimizda islom dini ma'naviyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning xususan, Buxoro o'lkasi farzandlari bo'lgan Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiylarning ma'naviy merosiga bundan keyin ham katta e'tibor berilishligiga urg'u berganligi, mamlakatimizda ushbu masala har doim davlatning, shaxsan Prezidentning e'tiborida ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, Prezidentimiz bu boradagi amaliy ishlar ishlar sifatida joriy yilda Imom Buxoriy bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini bu mu'tabar zotning musulmon dunyosidagi ulug' maqomiga mos ravishda mutlaqo yangi loyiha asosida qayta barpo etish ishlarini ham boshlanishligini, shuningdek, buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandiy bobomizning 700 yillik tavallud ayyomini yuqori saviyada o'tkazishimiz zarurligini ta'kidladi.⁹

Xulosa shuki, o'rta asrlarda Buxoro shon-sharaf mujassam bo'lgan, diniy hurmat-e'tibor va estetik tuyg'ular ifodalangan markaziy Osiyodagi barcha musulmonlarning muqaddas shahri bo'lgan. Ko'hna zaminimiz xususan, Buxoro o'lkasi islom ta'limoti keng tarqalgan davrlardan boshlab islomshunoslik ilmi takomiliga ulkan hissa qo'shgan zamin ekanligini butun dunyo jamoatchiligi e'tirof etmoqda. "Dunyoviylik dahriylik emas", ya'ni davlat tomonidan diniy e'tiqodga keng erkinlik berilishi, ammo, dinni niqob qilib hokimiyatni egallashga yo'l qo'ymaslikka rioya qiladigan mustaqil davlatimizda, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unlashtirilgan holda, porloq kelajak sari dadil odimlamoqda.

⁹ Prezident Sh.M Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar.